

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIY ASARLAR
VOSITASIDA MILLIY TUYG'ULARNI SHAKLLANTIRISHDA
OILANING O'RNI**

Bozorova Ziyoda

TERDPI Ta'lism tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lism)
mutaxasisligi 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolaladai milliy tuygularni shakllantirishda badiy asarlardan foydalanish hamda oilada milliy tuygularni shakllantirishda ota onalarga pedagogik maslahatlar, ahamiyatga molik bo'lgan jihatlar haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *oila, milliy tuyg'u, ertak, maqol, topishmoq, ijod, rivojlanish, munosabat*

THE ROLE OF THE FAMILY IN THE FORMATION OF NATIONAL FEELINGS IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH ARTISTIC WORKS

ABSTRACT

In this article, the use of artistic works in the formation of national feelings in preschool children, as well as pedagogical advice to parents and important aspects in the formation of national feelings in the family, are discussed in detail.

Key words: *family, national feeling, fairy tale, proverb, riddle, creativity, development, attitude.*

KIRISH

Mustaqillik davridagi islohotlarning birinchi bosqichida butun xalqni, asosan, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda ko'zda tutilgan maqsadlarga erishildi. Bu davrda yosh avlod milliy qadriyatlar va an'analarning tub mohiyatini bilishdi. O'tmishda ajdodlarimizning jahon fani ravnaqiga qo'shgan buyuk ta'lomi bilan yaqindan tanishdi. Boshqacha aytganda, yosh avlod o'zligini anglatdi.

Islohotlarning ikkinchi bosqichida, yosh avlod o'zligini anglash natijasi o'laroq, ma'naviy-ahloqiy, diniy-ahloqiy, ma'daniy-estetik, ma'naviy-marifiy, huquqiy va jismoniy jihatdan qarashlari chuqurlasha boshladidi.

Darhaqiqat, Maktabgacha talim tashkilotlarida talim-tarbiya ravnaqi, bolalarning milliy g'ururini tarbiyalash va yuksaltirish singari ijtimoiy-pedagogik vazifalarni amalga oshirishda kuchli ijtimoiy siyosat yaratib bergen imkoniyatlar salmog'i katta bo'lib, bunda tarbiyaviy ishlar yuqoridagi masalani sifatli hal qilishga yo'naltiridi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Har bir oila va davlat barkamol avlodni tarbiyalash uchun qayg'urishi lozim. SHaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila—haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, tarbiya o'chog'i, tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga, avvalo oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

Oila, uning asrlar mobaynida saqlanib kelinayotgan muqaddas an'analari orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, iymon, e'tiqod, ma'suliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmga ishtiyoy va madaniyat ko'nikmalari shakllanadi. Zero, har bir fuqaro oilaning jamiyatdagi o'rni va vazifasini, Vatanning ostonadan boshlanishini tushunmasdan turib, o'zini mukammal inson deb his qila olmaydi.

Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini yoshlikdan xalq va yurt taqdiri uchun fidoiylik tuyg'usini shakllantirish mafkuraviy tarbiyada muhim o'rin tutadi. Buning uchun bola xayotining dastlabki yillaridan boshlab uni narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an'analaramizga xos shakllarini qo'llash lozim. Yuqoridagi tilga olingan tarbiya shakllarini amalga oshirishning eng qulay yo'li-avvalo ota-onalarning ma'naviy bilim saviyasini oshirish, ularda sog'lom tafakkur va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu esa ota-onaning oldidagi, el-yurt oldidagi burchini to'g'ri anglashini, insonning dunyoga kelishi va komil topib rivojlanishiga oid qonuniyatatlarni puxta bilishini, oilaviy munosabatlar doirasida milliy urf-odat va an'analaramizni eng nodirlarini turmushga singdirish orqali bolalarda milliy g'urur va qadriyatlarga mehr-muhabbatni o'yg'otishni, ularni mustaqil fikrlaydigan kishilar qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Binobarin, ota-onalik shunday ma'suliyatli vazifaki, uning jamiyatimiz manfaatiga mos tarzda amalga oshirilishi uchun inson ham ma'naviy jihatdan ham psixologik jihatdan tayyor bo'lishi kerak.

Kasbni puxta egallash va fidokorona mehnat qilish uchun ilm qanchalik zarur bo'lsa, fozil farzandlar tarbiyalash va ularni insonlarga nafi tegadigan darajada yetuk qilib tarbiyalash uchun ham bilim shunchalik muhimdir.

Shuning uchun ham oila muqaddas hisoblanib, unga hayot maktabi deya ta’rif beradilar. Maktabgacha yoshdagi bola uchun oila – birinchi vatan, ijtimoiy hayotning birinchi pog‘onasidir.

Vatanparvarlik tushunchasining negizi bolaning kindik qoni to‘kilgan yerdan boshlanadi. Zero milliy g‘urur tuyg‘usini tarbiyalash ham oiladan boshlanishi lozim. Ana shu tarzda, Vatan tushunchasi – oila tushunchasi singari yaqin bo‘lib boradi va oila a’zolarining har biriga, ularning shuuriga iliqlik baxsh etadi. Bu iliqlik Vatan tuyg‘usini bola ongida shakllanishiga olib kela boshlaydi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda milliy tuyg‘ularni shakllantirish jarayonida oilaning kattalari-bobolar, momolar, yaqin qarindosh –urug‘lar ham bevosita ishtirok etadi. Azaliy udumga binoan, bola tarbiyasida ota-onasidan ham ko‘ra bobo va buvilarning ta’siri kuchliroq bo‘ladi. Ular oiladagi ma’naviy muhitning boshqaruvchilari hisoblanadi. Bunday tarbiya an’anasi buyuk ajdodlarimiz taqdirida muhim o‘rin tutadi.

Masalan, Amir Temurning nevarasi tarbiyasi bilan ularning onasi emas, ulug‘ bibilari –buvilari shug‘illangan. Xususan, SHohruh Mirzo singari temuriy shahzodalar Saroymulkxonim qo‘lida tarbiya topgan.

Bundan besh yuz ellik yil avval yashab ijod qilgan buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy bolani uyni yoritadigan va oilaga baxt-quvonch keltiradigan nur deb hisoblaganlar. Alisher Navoiy bolalar oilada va maktabda intizomli bo‘lishlari va o‘zlarining odobli ekanliklarini ko‘rsatishlari kerakligini ham ta’kidlab o‘tgan edi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda

Alisher Navoiy tarbiya usuli sifatida namuna ko‘rsatishga alohida e’tibor berar va kishilarni, ayniqsa yoshlarni yaxshi kishilardan o‘rganishga, ulardan ibrat olishga, ularning davrasida bo‘lish, ular bilan tez-tez suhbatlashishga chaqirar edi. U bola tarbiyasida ota-onalarning ibrati tzg‘risida shunday yozadi:

Farzand ato qullug‘in chu odat qilg‘ay ,
Ul odat ila kasbi saodat qilg‘ay,
Har kimki atog‘a ko‘p rivoyat qilg‘ay,
O‘g‘lidan anga shu ish siroyat qilg‘ay.

Milliy g‘ururni singdirishda asrlar mobaynida shakllangan, avloddan-avlodga bebaho meros sifatida o‘tib kelayotgan urf-odat, marosim va bayramlar ham milliy mafkuraning asosiy g‘oyalarni singdirishda muhim omil bo‘ladi. Xususan, Mustaqillik, milliy Navro‘z bayrami, buyuk siymolar, Xotira va qadirlash kuni kabi bayram va marosimlarimizdan jamiyat hayotiga zamonaviy mazmun baxsh etish yo‘lida oqilona foydalanish zarur.

XULOSA

Xulosa sifatida har bir oila o‘z farzandini sevadi. Hech kim ulardan yomon va baxtsiz insonlar yetishib chiqishini istamaydi. Farzandning har bir yutug‘i ota-onaning yuragini tog‘dek ko‘taradi, faxr va g‘urur tuyg‘ularini vujudga keltiradi. Lekin ota-onaning maqsad va niyatini farzandlar qanday tushunadilar, bu maqsadlarni amalga oshirish uchun ular qanday yo‘l va vositalardan foydalanadilar, bular nihoyatda murakkab masalalardir. Agar oila ma’nosiz hayot kechirsa, faqat shaxsiy huzur – halovati bilan mashhul bo‘lsa, bularning hammasi bolaning ma’naviy qiyofasiga salbiy ta’sir etmasdan qolmaydi, albatta. SHuning uchun ota-onalar uchun oila tarbiyasi, avvalo o‘z-o‘zini tarbiyalashdan bo‘lmog‘i kerak. Ota-onalarning eksak ijtimoiy ongi bolalarda ham shunga mos ong tarkib topishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.J.Mutalipova "Xalq pedagogikasi" Fan va texnologiya nashriyoti 2015-yil.
2. Hasanboyeva O. "Oila pedagogikasi" –Toshkent: Aloqachi, 2007. 287-289 b.
3. Kayumova N.M., Ro‘ziyeva M.M.“Oilada bolalarni xalq merosi vositasida ma’naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalq pedagogikasining o’rni “Uchinchi renessans davrida Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning roli” mavzusidagi talabalarning Ilmiy-amaliy anjumani materiallari 102-104-b
4. Mamedova M.M. Oilada bolalarning shaxs xususiyatlarini shakllantirishda xalq pedagogikasining ahamiyati “Uchinchi renessans davrida Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning roli”mavzusidagi talabalarning Ilmiy-amaliy anjumani materiallari 546-549-b